

## BOSHQARUV HISOBI VA TAHLILINING OBYEKTI SIFATI QURILISH XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING ALOHIDA XUSUSIYATLARI

Yahyoyev To'liq Ismatulla o'g'li

SamISI dotsent v.b. Tel: + 998 94 533 66 75

Pochta: yahyoyevtolqin93@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17499169>

**Annotatsiya.** Ushbu maqoladi qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonidagi alohida xususiyatlari inobatga olinib bosharuv hisobi va tahlilining obyekti sifatida tasnifi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** qurilish xizmatlari, qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar, uzoq davomiylilik, daromadlar, xarajatlar, qurilish-montaj ishlari.

Qurilish tarmog'i boshqa tarmoqlardan ko'plab alohida xususiyatlari bo'yicha farqlanadi. Uning asosiy farqlaridan biri bu qurilish korxonalari tomonidan ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarning natijalarining farqlanishidir. Shunday qurilish xizmatlari mavjudki natijada yangi moddiy ko'rinishga ega alohida obyekt paydo bo'ladi ammo yana shunday qurilish ishlari mavjudki natijada ma'lum bir obyektning shakli o'zgaradi yoki o'sha obyekt modernizatsiya qilinadi.

Bundan tashqari qurilish faoliyatini tahlil nuqtai nazaridan boshqa faoliyat turlaridan farqli jihatlari quyidagilardan iborat.


1. Qurilish faoliyati uzoq davriylikka ega ekanligi;
2. Bajarilgan ish bo'yicha har bir hisobot davrida moliyaviy natijani aniqlashda muammolar vujudga kelishi;
3. Mehnat samaradorligini aniqlashni aniq tizimi mavjud emasligida (subpudratchi tashkilot xodimlari mehnat unumdorligi);
4. Qurilish korxonalarida xarajatlarni xususiyatiga ko'ra davriy tan olish tizimi yetarlicha takomillashtirilmaganligi;
5. Qurilish korxonalarini moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarini xalqaro talablarga moslashtirilmaganligi;
6. Korxona tomonidan tender asosida bajarish uchun olingan qurilish ishining daromadi aniqligi ammo unga sarflanadigan xarajatlar o'zgaruvchanligi.

Qurilish ishlarini tashkillashtirishda moddiy-texnik bazani ta'minlash hamda qurilish jarayoniga qo'yiladigan talablar qurilish korxonalarida aktivlar hamda ularning harakatini tartibga solishni muhimlik darajasini ochib bergan.

Qurilish korxonalarida aktivlarning tasniflanishi muddatiga ko'ra, moddiy mavjudligiga ko'ra, pul oqimlari xususiyatiga ko'ra, korxona faoliyatida ishtirokiga ko'ra, passiv daromad keltirishiga ko'ra hamda strategik rejalar ishlab chiqilishida ahamiyatlilikiga ko'ra tasniflanadi.

Muddatiga ko'ra aktivlar uzoq muddatli hamda qisqa muddatli aktivlarga bo'linadi. Moddiy mavjudligiga ko'ra aktivlar moddiy aktivlar ya'ni qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ko'rib bo'ladigan aktivlarga hamda nomoddiy aktivlar ya'ni moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan aktivlarga bo'linadi.


Pul oqimlari xususiyatiga ko'ra moliyaviy ya'ni qarzlarni to'lash yoki ma'lum hisob-kitobni amalga oshirish jarayonida erkin foydalaniladigan aktivlar hamda hisob-kitobni amalga oshirish jarayonida qiyinchilik tug'diradigan aktivlarga bo'linadi.



### 1-rasm. Qurilish korxonalarida aktivlarning tasniflanishi

O'rganilgan qurilish faoliyatining alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qurilish korxonalarida aktivlar quyidagicha tasniflandi(1-rasm).

Qurilish korxonalarida amalga oshiriladigan qurilish xizmatlari ham o'ziga xos tarzda tasniflandi (2-rasm)



## 2-rasm. Qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan ish(xizmatlarni) alohida xususiyatlariga ko'ra tasniflanishi

Ushbu jihatlar inobatga olinib qurilish korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan ish(xizmat)larni ularning bajarilish muddati, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish xususiyati mavjudligi, natijalarning farqlanishi, subpudratchilar xizmatidan foydalanish darajasi hamda ko'rsatilayotgan ish(xizmat)larning tartiblashtirish yo'nalishlarini inobatga olgan holda qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan ish(xizmat)lar natijalarining farqli jihatlari inobatga olinib yangi moddiy ko'rinishdagi obyekt yaratadigan hamda ta'mirlash xususiyatiga ega bo'lgan ish(xizmat)lar kabi tasniflasak maqsadga muvofiq bo'ladi.